



E-POS- terminaldan foydalanish to'g'risidagi _____ - sonli shartnoma

_____ sh.

“ ” _____ 20__ yil

“Orient Finans” XATB nomidan [Bank vakilining lavozimi, F.I.Sh.], keyinchalik “Bank” deb ataluvchi, 202__ yil “ ” _____ dagi _____-sonli ishonchnoma asosida faoliyat yuritayotgan, bir tomondan, va

[Mijozning nomi] nomidan [Mijoz vakilining lavozimi, F.I.Sh.], [Hujjat turi, raqami, sanasi] asosida faoliyat ko'rsatuvchi, keyingi o'rinlarda “Mijoz”/ “Korxona” deb ataluvchi, ikkinchi tomondan, E-POS-terminaldan foydalanish to'g'risidagi Shartnomani (keyingi o'rinlarda Shartnoma deb ataladi) quyidagilar to'g'risida tuzdilar:

1. UMUMIY QOIDALAR

- 1.1. Ushbu Shartnoma Bank tomonidan mijozning hisobvarag'i bo'yicha operatsiyalarni elektron to'lov hujjatlaridan foydalangan holda E-POS tizimi yordamida amalga oshirish bo'yicha mijozga xizmatlar ko'rsatish maqsadida Bank va Mijoz o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tartibga soladi. Tomonlar operatsiyalarni amalga oshirishda amaldagi qonun hujjatlariga, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me'yoriy hujjatlariga va ushbu Shartnomaga amal qiladilar.
- 1.2. Tomonlar elektron to'lov hujjatlarining yuridik kuchini qog'oz shaklidagi hujjatlarning yuridik kuchiga teng ekanligini e'tirof etadilar.
- 1.3. E-POS real vaqt rejimida aholidan to'lovlarni qabul qilish va qayta ishlashni to'liq avtomatlashtirish hamda bank tizimi bilan integratsiyani ta'minlaydi. Bu tizim texnik vositalar, axborot texnologiyalari va axborot tizimlari xizmatlaridan foydalangan holda mijoz uchun bank kartalari orqali to'lovlarni qabul qilish imkoniyatini yaratadi.
- 1.4. Mazkur Shartnoma bo'yicha BANK quyidagi xizmatlarni taqdim etadi:
 - 1.4.1. Mijozni to'lov tizimiga ulash.
 - 1.4.2. Foydalanuvchilardan kelib tushgan pul mablag'larini hisobga o'z vaqtida (3 ish kunidan oshmaydigan muddatda) kiritish.
 - 1.4.3. Foydalanuvchi(lar)ning hisobvarag'idan Mijozning hisobvarag'iga mablag'larni o'tkazish to'g'risidagi farmoyishlarning BANK tomonidan bajarilganligi haqida ishonchli ma'lumot taqdim etish.
- 1.5. To'lov Foydalanuvchi nomidan va uning topshirig'i bo'yicha Mijoz foydasiga amalga oshiriladi. Bu jarayon to'lov tizimi tomonidan elektron to'lov hujjati shakllantirilishi orqali bajariladi. Ushbu hujjat asosida BANK Foydalanuvchining hisobvarag'idan mablag'larni echib oladi.
- 1.6. Mijozning xizmatlari/tovarlari/ishlari uchun to'lov amalga oshirilganda, BANK tomonidan mablag'lar muvaffaqiyatli echib olingandan so'ng, to'lov tizimi mijozga axborot yuboradi. Mijoz esa o'z navbatida Foydalanuvchi tomonidan xizmatlar/tovarlar/ishlar uchun to'lovni qabul qiladi va tegishli ravishda Foydalanuvchiga xizmat ko'rsatadi, tovarni etkazib beradi yoki ishni bajaradi.
- 1.7. To'lov amalga oshirilgandan so'ng Foydalanuvchi muvaffaqiyatli amalga oshirilgan To'lov haqida ma'lumot oladi.
- 1.8. Ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlar Tomonlarda mazkur Shartnoma imzolanganidan so'ng yuzaga keladi.

2. SHARTNOMA PREDMETI

- 2.1. Bank E-POS tizimini taqdim etadi va ma'lumotlarni uzatish tarmog'i orqali elektron usulda mijoz foydasiga plastik kartalar vositasida to'lovlarni qabul qilish majburiyatini oladi. O'z navbatida, mijoz E-POS tizimini qabul qiladi va Bank xizmatlariga haq to'lash majburiyatini zimmasiga oladi.
- 2.2. Bank Uzcard yoki HUMO tizimidagi bank kartalaridan to'lovlarni (onlayn operatsiyalar) qabul qiladi.
- 2.3. Ushbu Shartnomaga ko'ra, Mijoz topshiriq beradi va to'lovni amalga oshiradi, BANK esa o'zining to'lov tizimi va infratuzilmasidan foydalangan holda, Mijoz foydasiga Foydalanuvchilardan xizmat ko'rsatish, tovarlarni sotish va ishlarni bajarish uchun to'lovlarni qabul qilish hamda tegishli pul mablag'larini Mijozning hisob raqamiga o'tkazish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

3. TA'RIFLAR

- 3.1. **Shartnoma** – ushbu shartnoma, uning barcha ilova va qo'shimchalari, shuningdek, mazkur shartnomani bajarish bilan bog'liq bo'lgan barcha boshqa yozishmalar, jumladan, ammo bular bilan cheklanmagan holda, yozma ko'rsatmalar, tartib-qoidalar va xabarnomalardir.
- 3.2. **Bank kartasi / Karta** – amaldagi qonunchilik va bank hisobvarag'i shartnomasi asosida Bank yoki boshqa muassasa tomonidan chiqarilgan, karta egasiga naqd pulsiz to'lovlarni amalga oshirish imkonini beruvchi to'lov vositasi. Karta mahalliy yoki xalqaro, shu jumladan korporativ kartalar bo'lishi mumkin.
- 3.3. **Karta egasi** – bank xizmati ko'rsatish shartnomasida ko'rsatilgan, ushbu karta bilan xizmat ko'rsatiladigan hisobvaraqdagi pul mablag'larini tasarruf etish va Shartnoma shartlariga muvofiq ushbu kartadan foydalanib to'lovlarni amalga oshirish huquqiga ega bo'lgan shaxs.
- 3.4. **Bank kartasi hisobvarag'i** – bankda ochilgan va mazkur karta bilan bog'langan hisob-kitob raqami hisoblanadi.
- 3.5. **E-POS** – jismoniy bank kartasidan foydalanmasdan naqd pulsiz to'lovlarni amalga oshirish imkonini beruvchi virtual to'lov terminalidir.
- 3.6. **Tranzaksiya** – egasining bank kartasi yordamida E-POS terminali orqali amalga oshirilgan har qanday operatsiya.
- 3.7. **Qaytarish** – tovar qaytarilishi, xizmatdan voz kechish yoki boshqa sabablarga ko'ra karta egasining kartasiga pul mablag'larini qaytarishga yo'naltirilgan bank operatsiyasi. Qaytarish bank-ekvaer tomonidan qaytarish holati tasdiqlangandan va tizimda tegishli yozuv aks ettirilganidan so'ng amalga oshiriladi.
- 3.8. **Vaucher** - sotib olingan tovar yoki xizmatdan voz kechilganda xaridorga pul mablag'lari qaytarilganligini tasdiqlovchi qaytarish cheki yoki hujjat.
- 3.9. **Tarif** – Mijoz tomonidan E-POS xizmatidan foydalanish uchun Bankka to'lanadigan to'lovlar yig'indisi bo'lib, Tranzaksiyalar uchun to'lov, texnik xizmat ko'rsatish to'lovi va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oladi.
- 3.10. **E-POS hisoboti** – muayyan vaqt oralig'ida E-POS terminali orqali amalga oshirilgan barcha Tranzaksiyalar haqidagi ma'lumotlarning tizimlashtirilgan tasviridir.
- 3.11. **UZCARD va HUMO protsessing tizimi (MTT)** - "Yagona umumrespublika protsessing markazi" AJ (YUPM) (UZCARD) yoki "Milliy banklararo protsessing markazi" AJ (MBPM) (HUMO) mikroprotessorli kartalardan foydalangan holda naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimi ishtirokchilari o'rtasida axborot almashinuvini ta'minlaydi, ishtirokchi-banklar bilan shartnomaviy munosabatga ega bo'lgan va Tranzaksiyalarning axborot kliringini ta'minlaydi.
- 3.12. **To'lov tizimi** – bu to'lov ko'rsatmalarini qabul qilish, qayta ishlash va uzatishni,



shuningdek real vaqt rejimida to'lovlar holati haqidagi ma'lumotni taqdim etishni ta'minlovchi murakkab axborot tizimidir. Tizim bozor ishtirokchilari o'rtasida elektron hisob-kitoblarni amalga oshirish imkonini beruvchi dasturiy ta'minot va texnik vositalardan foydalanishga asoslangan.

4. O'ZARO HISOB-KITOBLARNI AMALGA OSHIRISH TARTIBI

- 4.1.** Mijoz ushbu SHartnoma bo'yicha ko'rsatiladigan xizmatlar uchun Bankka amaldagi tarif asosida vositachilik haqini to'laydi. To'lov hisob-kitob oyi yakunlangandan so'ng, Bank tomonidan taqdim etilgan hisobvara-q-fakturani Mijozning vakolatli vakili imzolaganidan keyin 5 (besh) ish kuni ichida amalga oshiriladi.
- 4.2.** Ushbu Shartnoma bo'yicha o'zaro hisob-kitoblar milliy valyutada amalga oshiriladi. Ushbu Shartnoma bo'yicha to'lov miqdorini o'zgartirish Tomonlarning o'zaro roziligi asosida qo'shimcha kelishuv tuzish orqali amalga oshiriladi.
- 4.3.** Bank har bir hisobot oyi yakunlanganidan so'ng 5 (besh) bank ish kuni ichida Mijozga ko'rsatilgan xizmatlar uchun hisob-faktura taqdim etadi. Mijoz hisob-faktura va bajarilgan ishlar dalolatnomasini olgandan so'ng 5 (besh) ish kuni ichida ularni ko'rib chiqishi hamda e'tirozlar bo'lmagan taqdirda imzolashi shart.
- 4.4.** Hisobvara-q-faktura olingan kundan boshlab 5 (besh) bank kuni ichida to'lov amalga oshirilmagan yoki belgilangan muddat davomida to'lovdan asosli ravishda voz kechilmagan taqdirda, Bank Fuqarolik kodeksining 783-moddasiga asosan Mijozning hisobvara-q'idan qarzdorlik miqdorida pul mablag'larini echib olish huquqiga ega bo'ladi.
- 4.5.** Agar Mijozda Bajarilgan ishlar dalolatnomasi yuzasidan kelishmovchiliklar mavjud bo'lsa, u Bankka asosli yozma e'tirozni dalolatnomani olgan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida yuborishi shart.
- 4.6.** Bank olingan e'tirozlarni 3 (uch) bank kuni ichida ko'rib chiqib, Mijozga asoslantirilgan javob yuboradi. Kelishmovchiliklarga rozi bo'lgan holda, Bank tuzatilgan Bajarilgan ishlar dalolatnomasini tayyorlab, uni Mijozga jo'natadi.
- 4.7.** Bank mijoz tomonidan taqdim etilgan kelishmovchiliklarga rozi bo'lmagan taqdirda, Tomonlar o'z vakillaridan iborat qo'shma ishchi guruh tuzadilar. Ushbu guruh 5 bank kuni ichida har ikki Tomonda mavjud bo'lgan bajarilgan ishlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'rganib chiqishi va taqqoslashi lozim.
- 4.8.** Bajarilgan ishlar dalolatnomasi va Hisob-faktura yuborilgan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida Bank Mijozdan belgilangan tartibda imzolangan Dalolatnoma nusxasini yoki uni imzolashdan asosli yozma rad etish xatini (kelishmovchiliklarni keltirib chiqaradigan aniq bandlarni ko'rsatgan holda) olmasa, xizmatlar Mijoz tomonidan to'liq hajmda va tegishli sifatda qabul qilingan deb hisoblanadi.
- 4.9.** Tizimdagi texnik masalalar yoki nosozliklarni bartaraf etish uchun Mijoz yoki Foydalanuvchi Bankning yoxud to'lov tizimlarining texnik yordam xizmatiga murojaat qilishi mumkin.

5. BANKNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

5.1. Bank quyidagi huquqlarga ega:

- 5.1.1.** Agar Mijoz Bankdan hisob-faktura olgandan so'ng, ogohlantirmasdan yoki uzrli sabablarsiz, ushbu Shartnoma bo'yicha ko'rsatilgan xizmat uchun Bankka to'lanadigan haqni to'lash muddatini bir necha marta buzsa, shuningdek, 2 (ikki) oy davomida Mijoz E-POS orqali to'lovlarni qabul qilmasa, Bank SHartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilish huquqiga ega bo'ladi.



- 5.1.2.** Tomonlar o'rtasida qo'shimcha kelishuv imzolangandan so'ng, o'zaro rozilik asosida mukofot miqdorini o'zgartirish.
- 5.1.3.** har qanday Tranzaktsiyani to'lamaslik va uni qayta ishlash bilan bog'liq barcha xarajatlarni Mijoz zimmasiga yuklash, agar Tranzaktsiya E-POSdan foydalanish qoidalarini buzgan holda qayta ishlashga yuborilgan bo'lsa, xususan:
- 5.1.3.1. Tovarlar va xizmatlar uchun to'lov summasi bitta karta egasidan bir martadan ortiq mablag' echib olingan holatda.
- 5.1.3.2. mijoz o'zi tomonidan to'lovni noto'g'ri bekor qilgan holatda.
- 5.1.3.3. Bank kartasining noto'g'ri raqami bilan so'rov yuborish yoki hisobdan chiqarish uchun umuman so'rov yubormaslik.
- 5.1.3.4. Agar texnik xato yoki mijozning aybi tufayli (masalan, to'lov tugmasini ikki marta bosish oqibatida) mijoz kartasidan tovarlar va xizmatlar uchun to'lov summasi bir martadan ortiq echib olingan bo'lsa.
- 5.1.3.5. Mijoz tomonidan uning tashabbusi bilan bank kartasining noto'g'ri raqami ko'rsatilgan yoki to'lov kartasini identifikatsiya qilish uchun zarur ma'lumotlar mavjud bo'lmagan hollarda.
- 5.1.3.6. firibgarlik belgilari yoki firibgarlikka urinish holatlari aniqlangan taqdirda.
- 5.1.3.7. To'lovchi yoki to'lov oluvchini aniqlash uchun zarur ma'lumotlar mavjud bo'lmaganda yoki noto'g'ri ko'rsatilgan hollarda.
- 5.1.3.8. Tranzaksiyalarni o'tkazishning belgilangan tartibi buzilganda (masalan, limitlardan oshib ketish, amal qilmaydigan to'lov kartalari bilan Tranzaksiyalar o'tkazish).
- 5.1.3.9. Shartnomada yoki amaldagi qonunchilikda ko'rsatilgan E-POSdan foydalanish qoidalarining boshqa buzilishlari mavjud bo'lganda.
- 5.1.4.** Quyidagi hollarda korxonaning to'lov tizimining tegishli modullariga kirishini cheklash yoki vaqtincha to'xtatish:
- 5.1.4.1. Korxona tomonidan ushbu SHartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini lozim darajada bajarmasligi.
- 5.1.4.2. Bank texnik xizmati va/yoki to'lov tizimi mutaxassisleri bilan birgalikda olib boriladigan profilaktika ishlari to'g'risida Bank korxonani kamida 5 (besh) bank kunidan oldin xabardor qilishi lozim.
- 5.1.4.3. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida yoki mazkur SHartnomada nazarda tutilgan boshqa hollarda.
- 5.1.5.** ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishni quyidagi holatlarda to'xtatib turish huquqiga ega:
- 5.1.5.1. Korxona tomonidan ushbu SHartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmasligi yoki lozim darajada bajarmasligi, jumladan, lekin bular bilan cheklanmagan holda, xizmatlar uchun to'lovni o'z vaqtida amalga oshirmasligi, noto'g'ri ma'lumotlar taqdim etishi, xavfsizlik qoidalarini buzishi.
- 5.1.5.2. Bank o'z majburiyatlarini bajarishiga to'sqinlik qiladigan texnik nosozliklar yoki boshqa holatlar yuzaga kelganda, agar Bank ularni bartaraf etish uchun barcha oqilona choralarni ko'rgan bo'lsa.
- 5.1.5.3. Tomonlar o'rtasida moliyaviy hisob-kitoblar bilan bog'liq nizoli vaziyatlar yuzaga kelgan taqdirda, agar Korxona 10 (o'n) bank ish kuni mobaynida ularni hal etish choralari ko'rmagan bo'lsa. Bank o'z majburiyatlarini bajarishni to'xtatib qo'yishi haqida Korxonani kamida 10 (o'n) bank ish kunidan oldin xabardor etishi shart.
- 5.2. Bankning majburiyatlari:**
- 5.2.1.** Mijozning virtual terminal ochish to'g'risidagi arizasi asosida, mijoz anketi to'ldirilgandan so'ng hamda mijoz haqidagi ma'lumotlar taqdim etilgandan keyin, 10 (o'n) bank ish kuni ichida tranzit hisobvaraqlar ochish masalasini ko'rib



chiqish va qabul qilish-topshirish dalolatnomasi orqali Mijozga Karta egalariga xizmat ko'rsatish uchun E-POS ro'yxatdan o'tkazish raqamini taqdim etish.

Mijozdan to'liq to'ldirilgan anketa va Bank texnik talablariga muvofiqlik tasdig'ini olgan kundan boshlab 10 (o'n) bank ish kuni ichida tranzit hisob raqamini ochib, Mijozga E-POS ro'yxatdan o'tkazish raqamini taqdim etish.

- 5.2.2. Texnik nosozliklar yuzaga kelgan holatlar bundan mustasno bo'lib, barcha qayta ishlangan Tranzaksiyalar summasini Bankning vakillik hisobvarag'iga mablag'lar kelib tushgan paytdan boshlab 3 (uch) ish kuni ichida Mijozning hisob raqamiga o'tkazib berish.
- 5.2.3. Mijozning yozma arizasiga ko'ra, mijoz tomonidan bank kartalari orqali amalga oshirilgan barcha Tranzaksiyalar bo'yicha hisobotlarni taqdim etish.
- 5.2.4. To'lov tizimi tomonidan Mijozga ma'lumot berilgan barcha to'lovlar bo'yicha Mijoz bilan solishtiruv o'tkazish.
- 5.2.5. BANK vakolatlari bekor qilingan (to'xtatilgan) yoki BANKning ruxsat etuvchi hujjatlari muddati tugagan hollarda, BANK Shartnoma bo'yicha xizmatlar ko'rsatishni to'xtatishi (to'xtatib turishi) va mazkur holat haqida Foydalanuvchilar hamda Mijozni ruxsat etuvchi hujjatlar muddati tugashidan 10 kun oldin xabardor qilishi shart.
- 5.2.6. Mijozga real vaqt rejimida elektron shaklda Foydalanuvchining hisobvarag'idan Mijozning hisobvarag'iga mablag'larni o'tkazish to'g'risidagi Foydalanuvchining elektron topshirig'i BANK tomonidan qabul qilinganligi haqida ma'lumot olishning texnik imkoniyatini ta'minlash.
- 5.2.7. Mijozga to'lov tizimining axborot va texnologik resurslaridan ("Merchant" moduli) foydalanish imkoniyatini taqdim etish va ma'lumotlarning saqlanishi, yaxlitligi va ishonchliligini ta'minlash.
- 5.2.8. Mijozning maxsus kassa dasturiy ta'minoti orqali Tranzaksiya muvaffaqiyatli amalga oshirilganligi haqidagi ma'lumot olingandan so'ng, BANK mijozning hisob raqamiga pul mablag'larini to'liq miqdorda o'tkazish majburiyatini oladi.
- 5.3. **Mijoz quyidagi huquqlarga ega:**
- 5.3.1. Bankdan amalga oshirilgan operatsiyalar bo'yicha ko'chirmalarni yozma ravishda so'rash.
- 5.3.2. Hisobvaraqlar bo'yicha ko'chirmalarni yozma ravishda so'rash. Kalendar oyi uchun birinchi ko'chirma bepul taqdim etiladi. Kalendar oyi davomida qo'shimcha ko'chirmalar taqdim etilganligi uchun xizmat ko'rsatish paytida amalda bo'lgan Bank tariflariga muvofiq to'lov undirilishi mumkin.
- 5.3.3. Bank xodimlariga qo'shimcha yo'riqnoma o'tkazishni yozma ravishda so'rash. Yo'riqnoma o'tkazish uchun to'lov xizmat ko'rsatilayotgan paytda amalda bo'lgan Bank tariflariga muvofiq belgilanadi.
- 5.3.4. Bank karta egalaridan ilgari qabul qilingan to'lovlarni vaucher asosida qaytarish operatsiyasini amalga oshirishni Bankdan so'rash huquqiga ega. Vaucher namunasi 6-ildavda keltirilgan.
- 5.3.5. To'lov tizimi tomonidan korxonaga ma'lumot uzatilgan, korxona foydasiga qabul qilingan barcha to'lovlarni BANK bilan solishtirib tekshirish.
- 5.3.6. ushbu Shartnoma shartlariga muvofiq to'lov tizimining tegishli moduliga to'siqlarsiz kirish huquqiga ega bo'lish.
- 5.3.7. E-POS tizimidan xaridorlardan to'lovlarni qabul qilish hamda tizim funktsiyalari va ushbu Shartnoma shartlarida ko'zda tutilgan boshqa operatsiyalarni amalga oshirish maqsadida foydalanish.
- 5.3.8. Boshqa Ishtirokchilar bilan moliyaviy, axborot va texnik masalalarda nizoli vaziyatlar yuzaga kelgan taqdirda, ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishni istalgan vaqtda to'xtatib turish. Mijoz ushbu shartnomada ishtirokini to'xtatishni mo'ljallagan sanadan kamida 5 ish kuni

oldin BANKka yozma xabarnoma yuborish orqali o'z ishtirokini to'xtatib turishi mumkin.

- 5.3.9.** Bank tomonidan taqdim etilgan reklama belgilari yoki boshqa materiallarni Korxonaning har bir xonasida va veb-saytida tegishli tarzda aks ettirish, hamda faqatgina Kartalarning Mijoz tomonidan to'lov vositasi sifatida qabul qilinishini ko'rsatish maqsadida Bank tomonidan tasdiqlangan nomlar yoki tasvirlardan foydalanish.

5.4. Mijoz quyidagi huquqlarga ega emas:

- 5.4.1.** Bank tomonidan taqdim etiladigan xizmat ko'rsatish taqiqlangan kartalar ro'yxatiga (bundan keyin - "Stop-ro'yxat") kiritilgan bank kartalarini to'lov vositasi sifatida qabul qilish. Stop-ro'yxatga kiritilgan karta to'lovga qabul qilingan taqdirda, Mijoz ushbu operatsiya bilan bog'liq barcha xatarlarni o'z zimmasiga oladi.

- 5.4.2.** bir Tranzaktsiya bo'yicha ma'lumotlarni har qanday shaklda qayta taqdim etish.

Bir xil Tranzaktsiya bo'yicha pul mablag'larini echib olishga takror-takror urinishlarni amalga oshirish, shuningdek o'tkazilgan operatsiyalar haqida noto'g'ri ma'lumotlar taqdim etish.

- 5.4.3.** Ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish bilan bevosita bog'liq bo'lgan ma'lumotlar bundan mustasno, Bankdan Foydalanuvchilar haqidagi ma'lumotlarni, jumladan, ammo bular bilan cheklanmagan holda: shaxsiy ma'lumotlar, to'lovlar tarixi, hisob balansi to'g'risidagi ma'lumotlarni so'rash.

5.5. Mijozning majburiyatlari:

- 5.5.1.** Bankka To'lov Korxonaning litsenziya nusxasini va/yoki to'lov xizmatlarini ko'rsatuvchi litsenziyaga ega kompaniya bilan tuzilgan shartnoma nusxasini taqdim etish.

- 5.5.2.** muntazam ravishda (bir kalendar haftada kamida bir marta) Bankning www.ofb.uz rasmiy veb-saytida e'lon qilinadigan E-POSdan foydalanish qoidalari, shuningdek ularga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar bilan tanishib borish. E-POSdan foydalanish bo'yicha savollar yuzaga kelgan taqdirda, Mijoz o'zi uchun qulay bo'lgan Bankning istalgan hududiy bo'linmasiga murojaat qilishi mumkin.

- 5.5.3.** Tomonlarning vakolatli vakillari tomonidan imzolangan qabul qilish-topshirish dalolatnomasiga asosan, bank kartasi egalariga xizmat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan E-POS (Merchant ID va Terminal ID) ro'yxatdan o'tkazish raqamlarini qabul qilish. Qabul qilish-topshirish dalolatnomasi ushbu Shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.

- 5.5.4.** To'lovlarni qabul qilish uchun to'lov tizimidagi shaxsiy ma'lumotlardan foydalangan holda Merchant ID va Terminal ID hisobini to'lov tizimida mustaqil ravishda ro'yxatdan o'tkazish.

- 5.5.5.** Bank kartasi egalaridan to'lovlarni qabul qilish bo'yicha barcha operatsiyalarni amalga oshirishda Mijoz faqat E-POS to'lov terminalidan va Bank tomonidan taqdim etilgan yoki tasdiqlangan boshqa texnik uskunalardan foydalanishi shart.

- 5.5.6.** To'lov tizimining to'xtash ro'yxatiga kiritilmagan haqiqiy bank kartalarini tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun to'lov sifatida naqd pul mablag'lari bilan to'lash shartlariga o'xshash tarzda, qo'shimcha komissiya yoki yig'imlar undirilmasdan qabul qilish.

- 5.5.7.** Joriy operatsiya kuni davomida to'lov terminalidan foydalanib amalga oshirilgan barcha Tranzaksiyalarga ishlov berish hamda tegishli to'lov hujjati (vaucher yoki chek) shakllantirilganidan so'ng keyingi operatsiya kundan



kechiktirmay mijozlarning bank kartalariga pul mablag'larini qaytarishni ta'minlash.

- 5.5.8.** Har kuni ish kuni yakunida onlayn operatsiyalar bo'yicha yakuniy natijalarni taqqoslash amallarini bajarish.
- 5.5.9.** Mijoz ushbu Shartnoma shartlariga yoki Bank brendiga oid har qanday ommaviy reklama materiallarini Bank bilan yozma ravishda kelishib olishni o'z zimmasiga oladi.
- 5.5.10.** Har kuni Tranzaksiyalar mavjud yoki mavjud emasligidan qat'i nazar, stop-ro'yxatini yangilash uchun ma'lumotlarni yuborish, shuningdek tizim konfiguratsiyasi o'zgargan yoki Tranzaksiyalarni qayta ishlash jarayonida xatolar yuzaga kelgan hollarda ham ma'lumotlarni yuborish.
- 5.5.11.** Bank tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etgandan so'ng 5 ish kuni ichida bank kartalari egalaridan tovarlar va xizmatlar uchun xato hisobdan chiqarilgan mablag'lar summasini Bankka qaytarish, jumladan, lekin bular bilan cheklanmagan holda, ikki marta hisobdan chiqarish, ko'rsatilmagan xizmatlar uchun hisobdan chiqarish va boshqa shu kabi holatlar.
- 5.5.12.** Mijozning yuridik manzili, pochta manzili, aloqa telefon raqami, elektron pochta manzili va bank rekvizitlariga oid barcha o'zgarishlar haqida Bankka zudlik bilan yozma ravishda xabar berish.
- 5.5.13.** shartnomaning amal qilish muddati tugagandan so'ng yoki u shartnomada ko'zda tutilgan har qanday sabab bo'yicha muddatidan oldin bekor qilinganda, 5 (besh) ish kuni ichida to'liq o'zaro hisob-kitobni amalga oshirish.
- 5.5.14.** Tranzaksiya bekor qilingan va/yoki bank kartasi egasidan to'lov summasi xato hisobdan chiqarilgan hollarda, Bank kartasi egasiga to'lov summasini qaytarishni ta'minlash maqsadida, barcha Tranzaksiyalar bo'yicha ma'lumotlarni va bekor qilingan to'lovlar haqidagi axborotni Tranzaksiya amalga oshirilganidan so'ng 5 ish kunidan kechiktirmay Bankka taqdim etish.
- 5.5.15.** Mahsulotlar/xizmatlar, ularning xususiyatlari, sotib olish va foydalanish shartlari, shuningdek, iste'molchining xarid qilish qaroriga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan boshqa har qanday muhim ma'lumotlarning to'liqligi va ishonchliligini ta'minlash kerak.
- 5.5.16.** To'lov tizimining tegishli moduliga kirish uchun shaxsiy identifikatsiya ma'lumotlaridan faqat o'zining to'lov tizimidagi ishi uchun foydalanish va bu ma'lumotlarni boshqa shaxslarga bermaslik.
- 5.5.17.** To'lov tizimi ishtirokchilari va/yoki korxonaning tovarlari/xizmatlari/ishlarini iste'mol qiluvchi yoxud to'lov tizimi orqali to'lovlarni amalga oshirish doirasida korxona bilan boshqa tarzda bog'liq bo'lgan uchinchi shaxslarning barcha mumkin bo'lgan talablari, e'tirozlari va da'volaridan BANKni himoya qilish, agar bunday talablar, e'tirozlar va da'volar BANK yoki to'lov tizimiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra korxonaning o'z faoliyatidagi uzilishlar oqibati bo'lsa. Korxona bunday masalalarni mustaqil ravishda hal etish majburiyatini oladi. Bunda, zarurat tug'ilganda, BANK va to'lov tizimi korxonaning so'roviga binoan barcha hujjatlar va boshqa zarur ma'lumotlarni taqdim etishi shart.
- 5.5.18.** Ushbu shartnomani bajarish doirasida olingan Foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlari maxfiyligini amaldagi shaxsiy ma'lumotlar to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq ta'minlash.

6. TOMONLAR JAVOBGARLIGI

- 6.1.** Agar bir taraf ikkinchi tarafga ushbu Shartnoma shartlarini buzish natijasida zarar etkazsa, aybdor taraf etkazilgan zararni to'liq miqdorda qoplashi shart.
- 6.2.** Bank quyidagilar uchun javobgar emas:



- 6.2.1.** Shartnoma shartlariga muvofiq bo'lmagan yoki zid bo'lgan Tranzaksiyalar bo'yicha to'lovlarni ta'minlash bo'yicha.
- 6.2.2.** Yagona umumrespublika protsessing markazi (YUPM) yoki Milliy banklararo protsessing markazi (MBPM) aybi bilan yuzaga kelgan Uzcard yoki HUMO to'lov tizimlaridagi texnik nosozliklar, ortiqcha yuklamalar yoki boshqa muammolar tufayli to'lovlarning kechikishi uchun.
- 6.2.3.** Ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun, agar bunday bajarmaslik banklararo elektron to'lovlar tizimidagi texnik nosozliklar, jumladan to'lovlarni qayta ishlash tizimlaridagi uzilishlar, elektr ta'minotining to'xtashi yoki uzilishi, aloqa liniyalarining shikastlanishi, shuningdek BANKning nazoratidan tashqari bo'lgan boshqa fors-major holatlar oqibatida yuzaga kelgan bo'lsa.
- 6.2.4.** Mijozning o'z tovarlari/xizmatlari/ishlarini iste'molchilarga taqdim etishi va/yoki sotishi munosabati bilan yuzaga keladigan majburiyatlari, shuningdek, Mijozning xizmatlari/tovarlari/ishlarining sifati uchun javobgarlik.
- 6.2.5.** Ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda, agar bunday bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik engib bo'lmaydigan kuch holatlari (fors-major) sababli yuzaga kelgan bo'lsa.
- 6.3.** Mijoz quyidagilar uchun to'liq javobgar hisoblanadi:
 - 6.3.1.** Mijoz tomonidan ushbu Shartnoma shartlarining buzilishi natijasida Bankka etkazilgan to'g'ridan-to'g'ri haqiqiy zararni, shu jumladan, ammo bular bilan cheklanmagan holda, boy berilgan foyda, jarimalar, penya va shunday buzilishlar munosabati bilan Bankka nisbatan qo'llanilgan boshqa sanksiyalarni qoplash uchun.
 - 6.3.2.** Ushbu shartnomaning 4.1-bandida ko'rsatilgan to'lov muddati buzilgani uchun, Mijoz Bankka 4.1-bandida belgilangan to'lov muddati tugagan kunning ertasidan boshlab, har bir kechiktirilgan kalendar kuni uchun o'z vaqtida to'lanmagan qarz summasining 0,1% (o'ndan bir foizi) miqdorida penya to'laydi. Har bir hisobot davri (kalendar oyi) uchun to'lanishi lozim bo'lgan penyaning maksimal miqdori, shu davr uchun to'lanishi kerak bo'lgan mukofot summasining 10% (o'n foizi)dan oshmasligi kerak. To'lov majburiyati qisman bajarilgan holda, penya faqat to'lanmagan summaga hisoblanadi. Korxona tomonidan to'lov muddatlari bir necha marta buzilgan taqdirda, Bank ushbu shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilish huquqiga ega.
 - 6.3.3.** Mijozga taqdim etilgan shaxsiy identifikatsiya ma'lumotlarini uchinchi shaxslar tomonidan noqonuniy yoki ruxsatsiz ishlatish, yo'qotish, buzish yoki soxtalashtirish natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararlar uchun.
- 6.4.** Mijoz to'lov tizimi, ABT va/yoki BANK infratuzilmasidagi uzilishlar va nosozliklar sababli to'lovlarni amalga oshirish jarayonida Foydalanuvchilarga etkazilgan zarar va noqulayliklar uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.
- 6.5.** BANK Foydalanuvchidan Mijozning tovar/xizmat/ishlariga to'lovni qabul qilgan holda, BANK aybi bilan tegishli Tranzaksiya amalga oshirilmasa yoki noto'g'ri/kechiktirib amalga oshirilsa, BANK Mijoz oldida javobgar bo'ladi. Tegishli Tranzaksiyani o'tkazish muddati buzilgani uchun Bank Mijozga har bir kechiktirilgan kun uchun Tranzaksiya summasining 0,1 foizi miqdorida, biroq 10 foizdan oshmaydigan miqdorda penya to'laydi.
- 6.6.** Jarima sanksiyalari va penyalarning to'lanishi Tomonlarni ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini tegishli ravishda bajarishdan ozod etmaydi.
- 6.7.** Ushbu shartnomani bajarishda tomonlarning har biri O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik talablariga rioya etishi shart bo'lib, buning uchun mustaqil ravishda javobgar hisoblanadi.



- 6.8.** Ushbu Shartnoma shartlarida ko'zda tutilmagan hollarda, tomonlarning o'z shartnomaviy majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun javobgarligi O'zbekiston Respublikasining tegishli qonun hujjatlariga muvofiq ko'rib chiqiladi.
- 6.9.** Foydalanuvchi kartasidan mablag'lar muvaffaqiyatli echib olinganidan so'ng, Mijozning kassa dasturiy ta'minoti tomonidan Tranzaktsiya muvaffaqiyatli amalga oshirilganligi tasdiqlanmagan holda, pul mablag'lari Foydalanuvchi kartasiga to'liq qaytariladi. Tranzaktsiya bekor qilinganda mablag'larni qaytarish majburiyati BANK zimmasiga yuklatiladi. Agar to'lovni bekor qilish to'lov tizimi interfeyslari orqali Mijozning o'zi tomonidan amalga oshirilgan bo'lsa, bunday bekor qilishning to'g'riligi va asosiligi uchun javobgarlik Mijozning o'zida bo'ladi.

7. KORRUPTSIYAGA QARSHI KURASHISH SHARTLAR

- 7.1.** Ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda Tomonlar, ularning affillangan shaxslari, xodimlari yoki vositachilari biron-bir g'ayriqonuniy ustunlik yoki boshqa g'ayriqonuniy maqsadlarni qo'lga kiritish uchun, boshqa shaxslarning xatti-harakatlari yoki qarorlariga ta'sir o'tkazish maqsadida, to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita, hech qanday pul mablag'lari yoki qimmatliklarni to'lamaydilar, to'lashni taklif etmaydilar, to'lashga ruxsat bermaydilar.
- 7.2.** Ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda Tomonlar, ularning affillangan shaxslari, xodimlari yoki vositachilari mazkur Shartnoma maqsadlari uchun qo'llaniladigan qonunchilikka ko'ra pora berish/olish, tijorat poraxo'rligi sifatida tasniflanadigan harakatlarni, shuningdek, jinoiy yo'l bilan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qo'llaniladigan qonunchilik va xalqaro hujjatlar talablarini buzadigan harakatlarni amalga oshirmaydilar (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2017 yil 23 maydagi 2886-son bilan ro'yxatga olingan). AV ro'yxat raqami 2886-son 23.05.2017 y.).
- 7.3.** Ushbu Shartnomaning har bir Tomoni boshqa Tomonning xodimlarini har qanday yo'l bilan rag'batlantirishdan voz kechadi, jumladan, pul mablag'lari yoki sovg'alar berish, ular uchun bepul ishlar (xizmatlar) bajarish va boshqa usullar orqali. Bunday rag'batlantirish xodimni muayyan darajada qaram qilib qo'yishi va ushbu xodimning rag'batlantiruvchi Tomon foydasiga biron-bir harakatlarni bajarishini ta'minlashga qaratilgan bo'lishi mumkin.
- 7.4.** Agar biror Tomon korruptsiyaga qarshi shartlarning buzilgani yoki buzilishi mumkinligi haqida shubha paydo bo'lsa, ushbu Tomon boshqa Tomonni yozma ravishda yoki ishonch telefoni orqali og'zaki tarzda xabardor etishi shart.
- 7.5.** Tomonlar o'zlarining ehtimoliy noqonuniy xatti-harakatlari va ushbu Shartnomaning korruptsiyaga qarshi shartlarini buzishi shartnomaning bekor qilinishiga olib kelishi mumkinligini e'tirof etadilar.
- 7.6.** Tomonlar ushbu shartnomaning korruptsiyaga qarshi shartlarini bajarish masalalari yuzasidan to'liq maxfiylikni kafolatlaydilar.

8. MAXFIYLIK

- 8.1.** Mijoz, Bank singari, Shartnoma bo'yicha ma'lumotlarning maxfiyligini (shu jumladan savdo ma'lumotlari parametrlarining maxfiyligini) ta'minlash uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi.
- 8.2.** Bank va Mijoz o'rtasida Shartnoma predmetiga oid taqdim etiladigan ma'lumotlar maxfiy hisoblanadi. Tomonlar uchinchi shaxslar tomonidan



olingan axborotning oshkor etilishini oldini olish maqsadida barcha zarur va etarli choralarni ko'radilar.

9. FORS-MAJOR

- 9.1.** Tomonlar ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni qisman yoki to'liq bajarmaganlik uchun javobgarlikdan ozod etiladi, agar bunday bajarmaslik yoki qisman bajarmaslik Shartnoma tuzilgandan so'ng yuzaga kelgan, tomon mavjud choralar bilan oldini ololmaydigan engib bo'lmas kuch (fors-major) holatlarining oqibati bo'lsa.
- 9.2.** Engib bo'lmaydigan kuch holatlari qonunda belgilangan tartibda vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanganida fors-major holati deb hisoblanadi.
- 9.3.** Favqulodda vaziyatlar yuz berganda, shuningdek, ushbu Shartnoma tomonlarining manfaatlariga bevosita ta'sir ko'rsatadigan barcha holatlar haqida fors-major vaziyatiga duchor bo'lgan tomon boshqa tomonga 5 kundan kechiktirmay xabar berish majburiyatini oladi.

10. NIZOLARNI HAL ETISH

- 10.1.** Shartnoma bilan bog'liq nizolar va kelishmovchiliklar muzokaralar yo'li bilan hal etib bo'lmagan taqdirda, ushbu Shartnomadan yoki u bilan bog'liq holda yuzaga keladigan barcha nizolar, kelishmovchiliklar yoki talablar, shu jumladan uni tuzish, o'zgartirish, bajarish, buzish, bekor qilish, tugatish va haqiqiyliги bilan bog'liq masalalar hal etilishi lozim. Bu masalalar qonunda belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi va hal qilinadi:
 - 10.1.1.** ushbu shartnoma bo'yicha bank xizmatlarini ko'rsatuvchi Bankning hududiy bo'linmasi joylashgan joydagi tegishli sudda (Amaliyot boshqarmasi / BXM / BXO).
 - 10.1.2.** yoki O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi huzuridagi Hakamlik sudida uning reglamentiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi huzuridagi Hakamlik sudi Raisi tomonidan tayinlanadigan bir nafar hakamdan iborat hakamlik sudi tarkibida ko'rib chiqiladi. Hakamlik sudining qarori Tomonlar uchun qat'iy va uzil-kesil hisoblanadi.
- 10.2.** Yuqorida ko'rsatilgan sudlardan biriga da'vo bilan murojaat qilishni tanlash huquqi Da'vogar ixtiyorida qoladi.
- 10.3.** Nizolar yuzaga kelgan taqdirda, bank yozuvlari va ko'chirmalar taraflarning Shartnoma bo'yicha majburiyatlarining ustun (prima facie) dalili hisoblanadi.

11. SHARTNOMAGA O'ZGARTIRISH VA QO'SHIMCHALAR KIRITISH

- 11.1.** Tomonlar Shartnoma shartlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish huquqiga ega.
- 11.2.** Shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar faqat ikkala tomon imzolaganidan keyin kuchga kiradi.
- 11.3.** Shartnomaga barcha ilovalar, qo'shimchalar va yo'riqnomalar Shartnomaning ajralmas qismlari hisoblanadi hamda bajarilishi majburiy sanaladi.

12. SHARTNOMA AMAL QILISH MUDDATLARI

- 12.1.** Shartnoma imzolangan paytdan boshlab kuchga kiradi va 3 kalendar yil muddatga tuziladi.
- 12.2.** Shartnoma quyida keltirib o'tilgan holatlarda bekor qilinishi mumkin bo'ladi:
 - 12.2.1.** tomonlarning o'zaro yozma kelishuviga ko'ra.
 - 12.2.2.** Agar tomonlardan biri ushbu shartnoma bo'yicha o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarmagan holda.



- 12.2.3.** Taraflardan birining tashabbusi bilan, shartnomani bekor qilishdan kamida 5 kun oldin yozma xabarnoma taqdim etilgan taqdirda
- 12.3.** Agar tomonlardan hech biri ushbu shartnomani bekor qilish istagini bildirmagan bo'lsa, shartnoma keyingi bir taqvim yiliga o'z-o'zidan uzaytirilgan hisoblanadi.

13. YAKUNLOVCHI QOIDALAR

- 13.1.** Shartnoma ikki nusxada tuzilgan bo'lib, har ikkalasi ham bir xil yuridik kuchga ega, tomonlarning har biri uchun bittadan beriladi va imzolangan paytdan boshlab kuchga kiradi.
- 13.2.** Shartnomaga muvofiq yoki u bilan bog'liq holda yuboriladigan barcha bildirishnoma va xabarlar yozma shaklda bo'lishi lozim. Agar ular shartnoma ishtirokchilarining quyida ko'rsatilgan yuridik manzillariga buyurtma xat orqali yuborilgan yoki shaxsan etkazib berilgan bo'lsa, hamda qabul qilinganligi to'g'risida tasdiqnoma mavjud bo'lsa, tegishli tarzda topshirilgan hisoblanadi.
- 13.3.** Ushbu Shartnomada tartibga solinmagan barcha masalalar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga hamda Bankning qoidalariga muvofiq hal etiladi.
- 13.4.** Shartnomaning quyida keltirilgan ilovalari namunaviy shakllar hisoblanib, ushbu shartnomada nazarda tutilgan holatlar yuz berganda rasmiylashtiriladi.
- 13.4.1.** 1-sonli ilova – E-POS – virtual terminalini ochish bo'yicha ariza
- 13.4.2.** 2-sonli ilova – Korxona anketasi
- 13.4.3.** 3-sonli ilova – Korxona anketasi
- 13.4.4.** 4-sonli ilova – Korxona haqida ma'lumotnoma
- 13.4.5.** 5-sonli ilova – E-POS bo'yicha ro'yxatdan o'tish ma'lumotlarini qabul qilish va topshirish dalolatnomasi
- 13.4.6.** 6-sonli ilova – To'lovni qaytarish cheki (vaucher)
- 13.5.** Mijozning iltimosiga ko'ra Shartnomaning matni o'zbek tilida kirill alifbosida tuzildi.

14. TOMONLARINING REKVIZITLARI

BANK

MIJOZ

“Orient Finans” XATB

Amaliyot

boshqarmasi/ BXM/ BXO

STIR:

Manzil:

Bank rekvizitlari:

h/r:

MFO:

IFUT:

Boshliq /Boshqaruvchi

F.I.Sh.

STIR:

Manzil:

Bank rekvizitlari:

h/r:

MFO:

IFUT:

Direktor

F.I.Sh.

M.O'. Imzo

M.O'. Imzo



E-POS- terminaldan foydalanish
to'g'risidagi shartnomasiga
1 - sonli ilova

“Orient Finans” XATB**Amaliyot boshqarmasi / BXM / BXO ga**

_____ dan
(Korxona nomi)

**E-POS – virtual terminalini ochish bo'yicha
ARIZA**

_____ uchun E-POS virtual terminalini ochishingizni so'rayman.
(virtual terminalning vazifalarini belgilash)

Korxona nomi: _____
(Korxona nomi)

Korxona manzili: _____

(joylashgan joyi, tadbirkorlik sub'ektlari esa faoliyatni amalga oshirish joyini ham ko'rsatadilar)

To'lov tizimi: _____
(To'lov tizimining yuridik va boshqa nomlarini, shuningdek litsenziyalar nusxasini va/yoki shartnoma nusxasini ko'rsatish)

« ____ » _____ 20__ y.

Rahbar F.I.Sh.

M.O'. (imzo)

Bosh buxgalter F.I.Sh.

(imzo)

BANK BELGISI

Virtual terminalni ochish uchun hujjatlarni tekshirib chiqdim:

Bo'lim Boshlig'i

(imzo)

Rukovoditel

(imzo)

Terminal ro'yhatdan o'tkazilgan sana: « ____ » _____ 20__ y.

Boshqa qaydlar: _____



E-POS- terminaldan foydalanish
to'g'risidagi shartnomasiga
2 - sonli ilova

KORXONA ANKETASI**Korxona nomi:** _____**Bank rekvizitlari:****Asosiy hisobvaraqa:**

Bank nomi: _____

MFO: _____, Bank kodi: _____

h/r: 2 _____

Yig'ilgan terminal daromadlarini o'tkazish uchun hisobvaraqa:

Bank nomi: _____

MFO: _____, Bank kodi: _____

h/r: 2 _____

Yig'ilgan terminal daromadlarini o'tkazish uchun ikkilamchi hisobvaraqa:

Bank nomi: _____

MFO: _____, Bank kodi: _____

h/r: 2 _____

Yig'ilgan terminal daromadlarini o'tkazish uchun tranzit hisobvaraqa:

Bank nomi: «Orient Finans» XATB, _____

MFO: 01071, Bank kodi: _____

h/r: 235 _____

Korxona aloqa ma'lumotlari:

Telefon: +998 (____) ____ - ____ - ____

Bog'lanish uchun shaxs: _____

Faks: +998 (____) ____ - ____ - ____

Elektron pochta: _____

veb-sayt: _____

Terminal o'rnatish joyi haqida ma'lumotlar:

Manzil: _____

Orientir: _____

Telefon: +998 (____) ____ - ____ - ____

Ma'sul shaxs: _____

**Korxona
Rahbari**_____
M.O': (Imzo)Yuqorida qayd etib o'tilgan
ma'lumotlar haqiqiyligini
tasdiqlayman



E-POS- terminaldan foydalanish
to'g'risidagi shartnomasiga
3 - sonli ilova

KORXONA ANKETASI

Korxona nomi:

YUridik manzili:

Orientir:

Rahbar F.I.Sh.:

Rahbarining aloqa raqami:

Buxgalter F.I.Sh.:

Buxgalter aloqa raqami:

Bank kartalari orqali olingan tushum
o'tkaziladigan bank hisob raqamining
rekvizitlari:

Faoliyati sohasi:

Agar Korxona bir nechta savdo shoxobchalariga yoki tovarlar/xizmatlar etkazib beruvchilarga ega bo'lsa va xizmat ko'rsatish joylari shahar/tumanning turli qismlarida joylashgan bo'lsa, iltimos, savdo Korxonalari (yoki savdo nuqtalari) haqidagi aloqa ma'lumotlarini ko'rsating:

Korxona nomi (savdo shoxobchalari)	Aloqa raqami
	Manzil: Orientir: Aloqa raqami: Aloqa uchun shaxs F.I.Sh.:
	Manzil: Orientir: Aloqa raqami: Aloqa uchun shaxs F.I.Sh.:
	Manzil: Orientir: Aloqa raqami: Aloqa uchun shaxs F.I.Sh.:

Yuqorida ko'rsatilgan ma'lumotlarning to'g'riligini tasdiqlayman va yuqorida sanab o'tilgan xodimlarni bank kartasi egalari xizmat ko'rsatish uchun mas'ul shaxslar sifatida tayinlayman

Korxona Rahbari

✓

M.O'. (Imzo)

Korxona xodimlariga tushintirish ishlari olib borildi

«Orient Finans» XATBDan

F.I.Sh. (Imzo)



*E-POS- terminaldan foydalanish
to'g'risidagi shartnomasiga
4 - sonli ilova*

KORXONA HAQIDA MA'LUMOTNOMA

Korxona nomi: _____
Yuridik manzili: _____
Orientir: _____
Rahbarning F.I.Sh.: _____
Rahbarning telefon raqami: _____
Buxgalterning F.I.Sh: _____
Buxgalterning telefon raqami: _____
Bank kartalari orqali tushgan pul
mablag'lari o'tkaziladigan, Bank hisob
raqami rekvizitlari: _____
Faoliyat turi: _____

(Savdo turi, xizmat ko'rsatish turi, sayt egasi, tovar yoki xizmat etkazib beruvchi sifatida Korxona ishtirokini aniq ko'rsatish)

Sayt nomi (<http>/<https> manzili): _____

Veb-sayt orqali ko'rsatiladigan tovarlar va xizmatlar ro'yxati: _____

Sayt mazmuni (Reklama, yopiq akkauntlar, boshqa resurslarga havolalar mavjudligi to'g'risidagi ma'lumot): _____

Ta'minotchilar: _____

(Tovar yoki xizmat etkazib beruvchilar ro'yxati)

Agar Korxona bir nechta savdo nuqtasiga yoki tovar/xizmat etkazib beruvchiga ega bo'lsa (Har bir nuqta yoki ta'minotchi uchun alohida qilib, faoliyat turi, savdo turini ko'rsatish): _____

Yuqorida ko'rsatilgan ma'lumotlarning to'g'riligini tasdiqlayman.
Korxona Rahbari

M.O'. (Imzo)

F.I.Sh.



E-POS- terminaldan foydalanish
to'g'risidagi shartnomasiga
5 - sonli ilova

E-POS bo'yicha ro'yxatdan o'tish ma'lumotlarini qabul qilish va topshirish dalolatnomasi

Tashkent sh. «___» _____ 20__ y.

«Orient Finans» XATB _____ vakillari quyidagi tarkibda:

Boshqaruvchi/Boshliq: _____.

Chakana amaliyotlar operatsiyalari bo'limi Boshlig'i: _____.

va Korxona vakili:

Korxona Rahbari: _____

Dalolatnomani quyidagilar to'g'risida tuzdilar:

«Orient Finans» XATB vakillari tomonidan jadvalda keltirib o'tilgan E-POS ma'lumotlari
TOPSHIRILDI va Korxona vakili tomonidan QABUL QILIB OLINGANLIGI to'g'risida:

No	Nomlanishi	Raqami
1.	Merchant ID (E-POS to'lov terminali)	
2.	Terminal ID (E-POS to'lov terminali)	

Taraflar haqiqatga mos kelmaydigan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan dalolatnomani
imzolaganliklari uchun javobgarlik to'g'risida ogohlantirilganlar.

Dalolatnoma ikkita bir xil nusxada tuzildi.

Bank nomidan:

F.I.Sh.

Korxona nomidan:

F.I.Sh.

✓

M.O': Imzo

M.O': Imzo



E-POS- terminaldan foydalanish
to'g'risidagi shartnomasiga
6 - sonli ilova

(Namuna)

_____ sh.

« ____ » _____ 20__ y.

TO'LOVNI QAYTARISH CHEKI (VAUCHER)

(Korxona va uning savdo nuqtasining nomi, hokimlik va soliq inspeksiyasidagi ro'yxatdan o'tish raqami)

1.	Karta orqali to'langan tovar/ xizmatning nomi	
2.	Karta egasi F.I.Sh.	
3.	Tranzaktsiya summasi (raqamlar bilan)	
4.	Tranzaktsiya summasi (harflar bilan)	
5.	Tovar/xizmatni qaytarish sababi	
6.	Karta egasining bankining nomeri va kodi	
7.	Korxona va uning savdo nuqtasining rekvizitlari: <u>Manzil:</u> pochta indeksi, viloyat, tuman/shahar, ko'cha, uy, xona <u>Bank</u> hisob raqami, kodi, bankning nomi va manzili va h.k.	

Tovar/xizmatni qaytardi: _____

Karta egasining ma'lumotlari:

F.I.Sh.

Imzo

Shaxsni tasdiqlovchi
hujjatning ma'lumotlari:

_____ « ____ » _____ 20__ y.

Tovar/xizmatni qabul qildi: _____

Korxona Rahbari:

F.I.Sh.

M.O'.

Imzo